



## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNING TOVUSH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Fozilova Odina Nabiyevna

FarDU, Maktabgacha ta'lim kafedrası

katta o'qituvchi, f.f.b.f.d (FhD)

Azimbekova Shohidaxon

FarDU, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11531997>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2024 yil

Ma'qullandi: 29-may 2024 yil

Nashr qilindi: 9-iyun 2024 yil

#### KEY WORDS

*innovatsion texnologiyalar, nutq madaniyati, ta'lim, nutqni rivojlantirish, artikulyatsiya, raqamli hikoyalar, pedagogik strategiyalar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashni o'rganadi. Bu nutqni rivojlantirish uchun muhim davr sifatida erta bolalikning ahamiyati va bu jarayonni yaxshilash uchun zamonaviy texnologik vositalarning imkoniyatlarini ta'kidlaydi.*

Hozirgi zamon pedagogikasi bolalar nutqi kattalarga taqlid qilish yo'li bilan rivojlanib borishini isbotlab berdi. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir". Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining nutqi tarbiyalanuvchilar uchun namuna va ularga ta'sir ko'rsatuvchi vositadir. Tarbiyalanuvchilar hali tajribalari yoqligi, nutqlari yaxshi rivojlanmaganligi sababli har qanday tuzilgan nutqqa taqlid qilaveradilar. Bundan ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutq xususiyatlari to'laligicha tarbiyachi nutqiga bog'liq. Doimo kichkintoylarning diqqat-e'tibori markazida turadigan va ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachining nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manba hisoblanadi, shuning uchun u nafaqat to'g'ri so'zlashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etishi, balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosqlik bilan so'zlashi, uning nutqi intonatsion jihatdan ifodali, grammatik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilgan, ravon, tushunish uchun oson bo'lishi hamda so'z bilan belgalash to'g'ri va aniq amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda o'qigan hikoyasi bolalarda qiziqish uyg'otadi, ularda qayg'urish, so'z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va quruq ohangda his-hayajonlarsiz o'qib berilsa, u faqatgina badiiy acapra nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi.

Pedagog o'z nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi va unda kamchilik borligini sezsa, uni darhol bartaraf etishga intilmog'i lozim. Biroq, o'z nutqining kamchiligini aniqlash har doim ham oson kechmaydi, chunki muloqot jarayonida so'zlovchining diqqat-e'tibori eng avvalo nutqning shakliga emas (qay tarzda aytish), balki uning mazmuniga (nimani aytish) qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, o'z nutqiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo'lish natijasida ayrim kamchiliklar tilga qattiq o'rnashib qolishi va keyinchalik so'zlovchi uni sezmay qolishi mumkin. Masalan, nutqning shoshqaloqligiga, tushunarsizligiga, bir ohangdaligi (monotonligi), ovozning kuchliligi, ayrim tovushlar, so'zlarni noaniq talaffuz qilish kabi nuqsonlar sezilmasdan qoladi.

O'z nutqining nomukammalliklari haqida bilish uchun pedagog o'rtoqlarining mulohazalariga quloq tutishi darkor. Shunda tarbiyachi nutqini tovush, leksik vositalardan foydalanish, grammatik jihatdan rasmiylashtirish nuqtai-nazaridan tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki, nutq ustida ishlash chog'ida tarbiyachining o'zini-o'zi nazorat qilishi evaziga nutq sifati yaxshilanadi. Shuning uchun nutqda aniqlangan kamchiliklarga tarbiyachining o'zi va uning o'rtoqlari diqqat-e'tibor bilan yondoshishlari zarur. O'z tarbiyalanuvchilarida ana shunday kamchiliklar paydo bulishining oldini olish uchun pedagog o'z nutqiga nisbatan qanday talablarni qo'yishi zarur?

Tarbiyachining nutqiga qo'yilgan pedagogik talablar quyidagilar:

**Nutqning to'g'riligi, uning adabiy tili me'yorlariga muvofiq kelishi.**

Bunda quyidagi me'yorlar hisobga olinadi:

a) talaffuz me'yorlari:

Unli va undosh talaffuzi, so'z tarkibidagi qo'sh va yondosh unlilar talaffuzi, tutuq belgisi so'zlar talaffuzi, kishilarning ism-familiyalari, qisqartma otlar, qo'shma fe'llar, so'z birikmalari, morfologik ko'rsatkichlar, so'z yasovchi forma yasovchi qo'shimchalar talaffuzlari. Agar tarbiyachining nutqi aniq, adabiy til me'yorlariga muvofiq bo'lsa, jummalarni, so'zlarni va har bir tovushni aniq talaffuz etsa, bolalarning nutqlari to'g'riligiga erishiladi.

b) lug'aviy me'yorlar:

Har bir xalq tili o'sha millat a'zolarining erkin va bema'lol fikrlasha olishi uchun yetarli bo'lgan so'z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo'lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli so'zlashuv tili esa adabiy tilda qo'llanuvchi so'zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma'nosiga ko'ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so'zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha sozlar adabiy tilda qo'llanilavermaydi. Tarbiyachi nutqi har qanday shevalardan holi, tildagi ma'lum bir lug'aviy me'yorlar asosida tuzilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

- a) sinonimlardan o'rinli foydalanish;
- b) antonimlardan to'g'ri foydalanish;
- c) ko'chma ma'noli so'zlarni o'rinli qo'llash;
- d) so'z birikmalarini to'g'ri qo'llash;
- e) iboralarni to'g'ri qo'llash;

Tarbiyachi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o'rinni egallaydi. Ular bola bilimining dunyoqarashining bilishi hisoblanadi.

Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. g'arb mutafakkirlari ham, sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblanganlar. Aristotel -Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi|| degan bo'lsa, Kaykovus: -Ey, farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgan, so'zlaganda ma'noli gapir, notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang aniqlik nutqning tenbrlarini yaxshilash, diktsiyaga e'tibor berish, tovushlarning past baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabililar.

Aniqlik ikki xil bo'ladi: narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nusxa mazmunining munosabatida ko'riladi. Demak, mavjudlik narsalar, hodisalar orqali nutqda aniq aks etgan bo'lsa, bunday nutq aniq hisoblanadi.

Nutqning har tomonlama to'g'rib o'lishi uchun narsa aniqligining o'zi yetarli emas. Tushunchaviy aniqlik ham bo'lishi zarur.

Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni o'rganish va ularga amal qilishni talab qiladi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakli variantni ajratib nutqda qo'llash.

b) Nutqda ishlatiladigan so'zning otlashgan ma'nolarini har tomonlama bilish; nojiddiy, taxminiy qo'llashlardan qochish; chunki batayn soz qo'llash nutqni beburd qiladi; So'zning ko'p ma'noliligiga jiddiy e'tibor berish, ko'p ma'noni soz nutqda qo'llanganda o'zining qaysi ma'noda ishlatilayotganligini aniq tasavvur qilish, fikr yuzaga chiqishida bu so'zning boshqa ma'no qirralari mon'elik qilish-qilmasligini ko'z oldiga keltirish; omonimlarning xususiyatlarini adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazishidir. Tarbiyachining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tili normalarga sodiq qoladi, adabiy tilning go'zal va ta'sirchanligini o'zida saqlaydi. Adabiy til ma'lum qo'shimchalar, grammatik kategoriyalarni qo'llanilishidagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo'zbek harakatlarida bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda intyerfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son. -14 b.
2. Bolalar entsiklopyediyasi. 2-nashr. -T.: "O'zbyekiston milliy entsiklopyediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. -664 b.
3. Boymatova A.G., Djumabayeva M.B., Aliyeva K.S. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari" moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. -T.: TDPU, 2018.
4. Volkov, B. S. Psixologiya detstva: uchebno-metod. posobie / B. S.Volkov, N. V. Volkova. - M. : APO, 1997. - 152 s.
5. Do'stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. YOsh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
6. Soliev I. S. Factors of formation of information competence of future primary school teachers //Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации. - 2020. - С. 218-220.
7. Sobirjonovich S. I. et al. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVO-DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. - 2023. - T. 3. - №. 4. - С. 124-130.
8. Ergasheva, Durdona. "SHAXSIY PEDAGOGIK TAJRIBANING TAVSIFI HAMDA O'QITUVCHI USLUBLARI." *Interpretation and researches* 1.7 (2023).
9. Nabiyevna F. O. et al. Working With Parents In Moral And Patriotic Education Of Pre-School Children //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. - 2023. - T. 19. - С. 40-43.
10. Abubakirova, Odina, and Maxliyo Oripova. "BOLANI ADAPTIV TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARIGA TAYYORLASHDA KUZATISH, NAZORAT QILISH VA HAMKORLIK DASTURI." *Бюллетень педагогов нового Узбекистана* 1.6 (2023): 24-26.